

“Indorama Kokand fertilizer and Chemicals” AJ da raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari
talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan
“YO‘L XARITASI”

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Muddat	Mas‘ul ijrochilar
1	Bir yilga mo‘ljallangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo‘yicha “Yo‘l xarita” sini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Har yili 25-dekabrga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs
2	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash: Bunda, Korxonada o‘z ustun mavqeini suiste‘mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish.	Har chorakda	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs Yuridik bo‘lim
3	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini aniqlash va ularning oldini olish: Bunda, Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste‘molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarini ishlab chiqish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs Yuridik bo‘lim
4	Korxonada tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazilishida raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish. Korxonada tomonidan sotiladigan, ular bo‘yicha ustun mavqe e‘tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopoliyaga yuqori va monopoliyaga past narxlar o‘rnatilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni o‘rganish. Korxonada va boshqa yuridik shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni o‘rganib borish . Bunda: - ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining; - ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining; - til birlashtirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs Yuridik bo‘lim

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Muddat	Mas'ul ijrochilar
5	Insofisz raqobat holatlariga yo'l qo'yimaslik. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishechanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlarga yo'l qo'yimaslik choralarini ko'rish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs, Yuridik bo'lim
6	Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
7	Raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgarishlarni o'rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs, Yuridik bo'lim
8	Korxonada xodimlari orasida "Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish" mavzusida seminarlar va muloqotlar o'tkazish	Bir yilda kamida 2 marta	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
9	Faoliyat davomida xodimlarga muntazam ravishda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berib borish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
10	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash va tasdiqlash uchun bosh directorga kiritish	Har yili 23 dekabrga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
11	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni korxonada joylash va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi organga yuborish.	Har yili 25 dekabrga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
12	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashinuvini amalga oshirish	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs

Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yich mas'ul shaxs

Z.G'oporov

"Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ yuristi

Sh. Kabaylov